

ZAMONAVIY JAMIYATDA YOSHLAR IJTIMOIY FAOLLIGINING FALSAFIY

TAHLILI

Abduvaliyev Ortiq Abdulhamidovich

Jdpu Erkin Tadqiqotchisi

Bugungi zamonaviy jamiyatda yoshlarning ijtimoiy faolligini falsafiy nuqtayi nazardan o‘rganish dolzarbligicha qolmoqda. Yoshlarning ijtimoiy faolligi ijtimoiy faoliyatning muhim substansional asosi sifatida jamiyat ijtimoiy hayotini barqaror asosda rivojlanishi, ijtimoiy borliqni o‘zini o‘zi tashkil etishi, taraqqiyotga oid qadriyatlar va an’analarning takomilga yetishida muhim ahamiyatga egadir. Yoshlar ijtimoiy faolligi davlatda o‘tkazilayotgan ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohada o‘tkazilayotgan islohotlarga to‘g‘ridan to‘g‘ri ijobiy ta’sir o‘tkazadi.

Yoshlar innovatsion faolligi mamlakat milliy manfaatlari tamoyillari va islohtlar amaliyoti bilan uyg‘un bo‘lib, aholining turmush farovonligini yaxshilash, hayot tarzini yuqori darajaga ko‘tarish, bu borada hokimiyat tomonidan tuzilgan dasturlar va olib borilayotgan sa'y-harakatlarning amaliyotda zohir bo‘lishiga ko‘maklashadi. Shuningdek, yoshlarning mahalla hududida ijtimoiy va innovatsion faolliklarni namoyon etishi hududda aholining ijtimoiy muammolarini hal etishda ishtirok etadigan boshqaruv sub’ektlarining mas’uliyatini oshirish va ularni chora-tadbirlarni o‘z vaqtida amalga oshirishlariga o‘ziga xos ijtimoiy nazoratni amalga oshiradigan mexanizm sifatida ham namoyon bo‘ladi.

Yoshlarning ijtimoiy va innovatsion faolligi tahlili shuni ko‘rsatadiki, ularning jamiyat va davlatning umumiy hamda birgalikdagi faoliyatiga ko‘mak beradigan faoliyat hisoblanadi. Bu esa, yoshlarning ijtimoiy faoliyatga nisbatan xayriyohligi va umumxalq manfaatlarini ta’minlashga nisbatan intilishlarini ro‘yobga chiqaradi. Yoshlarning xalqimizning hayotiy ehtiyojlari turmush farovonligini yanada yuksaltirishga xizmat qiladigan innovatsion loyihalarini ishlab chiqish, ijtimoiy muammolarni hal etishga mo‘ljallangan chora-tadbirlar dasturlarini tuzishda qatnashishlari doimiy va izchil ravishda amaliyotda namoyon bo‘lishi muhim amaliyot hisoblanadi. Yoshlarning bu jarayonlarda ishtirok etishlarida jamoatchilik bilan hamkorlik qilishlari, ularda mavjud tajribalarni o‘rganishlari va mazkur ko‘nikmalarni amaliy innovatsion faoliyatda joriy etishlari maqsadga muvofiqdir.

Shuningdek, yoshlar davlat miqyosida hal etiladigan har bir strategik ahamiyatga ega bo‘lgan muhim hujjatlarni muhokamasida ham yoshlarning doimiy o‘z takliflari bilan ishtirok etib borishlari ularning jamiyat kelajagi uchun ijodiy va tashabbuskorlik faoliyatini kengaytiradi. Yoshlar qonunlar, qonun osti va dasturiy hujjatlar muhokamasida faol ishtirok etishlari davlat va jamiyatimiz uchun eng muhim ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va ma’naviy muammolarni o‘z vaqtida bartaraf etishi uchun muhim bo‘lgan yo‘nalishlarni ishlab chiqilishiga ko‘maklashadi. Shu bois, olimlarning ta’kidlashicha, “Mustaqil milliy ijtimoiy taraqqiyot yangi sifatiy bosqichga o‘sib o‘tishini ta’minlashda moddiy va ma’naviy ishlab chiqarish jarayonlarini

dialektik tarzda uyg‘unlashtirishning yana bir usulini innovatsiyalarni iqtisodiyot va ma’naviyat sohasiga joriy etish asosida ularni uyg‘un tarzda rivojlantirishni yo‘lga qo‘yish tashkil etadi. Bu usul yoshlarning mehnat faoliyatini iqtisodiyot va ma’naviyat bilan uyg‘un tarzda tashkil etish asosida rivojlantirishning dialektik xususiyatlarini o‘zida ifodalagan vositalar orqali ish yuritadi”¹.

Yoshlarning o‘z ijtimoiy va innovatsion faolliklarini oshirib borishlari jamiyatda mavjud bo‘lgan boshqa ijtimoiy guruhlarning manfaatlarini himoya qilish qobiliyatlarini ham vujudga keltiradi. Yoshlarning novatorlik, ya’ni yangiliklarga intilishdagi umumiy qobiliyatlarining oshib borishi intellektual salohiyat, innovatsion tafakkur va yaratuvchanlik dunyoqarashini oshib borishi bilan bog‘liq holda takomillashmoqda. A.Prigojining ta’kidlashicha, “Innovatsiyalar sub’ektlarining eng asosiy xarakteristikalaridan biri, bu sub’ektiv asosda ma’lum imkoniyatlarga ega bo‘lgan holda o‘zining mavjud bo‘lishini jamiyat bilan bilan bog‘liq qabul qilingan asoslarini o‘z faoliyatiga ko‘ra tafakkurda zohir etish hisoblanadi”¹.

Shuning bilan birgalikda ta’kidlash lozimki, yoshlarning ilmiy salohiyatini jamiyatda bunyodkorlik an’analarini ro‘yobga chiqarishga doimiy yo‘naltirib borish, ularni ijtimoiy-foydali mehnatga tayyorlash lozim bo‘ladi. Bu faoliyat oila, ta’lim-tarbiya dargohlari, mahalla va jamoatchilikka ko‘proq mas’uliyat yuklaydi. Yoshlar doimiy ravishda o‘z qarorlarini tez o‘zgartiradigan, turli tuman qiziqishlarga boy bo‘lgan ijtimoiy guruh hisoblanadi. Shuning uchun yoshlarning barqaror ravishdagi faolliklarini ta’minlab borish, ularning jamiyat va davlatning ehtiyojlaridan kelib chiqadigan sa’y-harakatlarini rag‘batlantirib borish ijtimoiy munosabatlarda muhim voqelik hisoblanadi.

Yoshlarning innovatsion faolligi tizim sifatida ularning atrof-muhit bilan munosabatlarida namoyon bo‘ladi. Yoshlar atrof-muhit va ijtimoiy borliqdan o‘ziga xos axborotlarni to‘plash, tajribalarni o‘zlashtirish orqali ijtimoiy munosabatlarga tegishli tartibda moslashib boradi, jamiyatda namoyon bo‘layotgan zamonaviy yangiliklarni o‘rganish orqali mazkur jarayonda o‘zi ham ishtirok etishiga harakat qiladi.

Yoshlarning innovatsion faolliklarini oshirish maqsadida ularning novatorlik ko‘nikmalarini oshirishda turli motivatsiyalarni qo‘llash, ijtimoiy reklamani kuchaytirish lozim. Chunki yoshlarga ularning keljak vorislari va istiqbolda muhim islohotlarni yaratuvchi kuch ekanligini singdirib borish bilan birgalikda jahonda olib borilayotgan yoshlar bilan ishslash tajribalarini ham qo‘llab borish, maqbul tomonlarini o‘zlashtirib, yoshlar faolliklarini jonlantirishga tatbiq etish muhim jarayondir.

¹ Тоғаев Н., Шерманов И., Чилмаматова Ш. Жамият тараққиётида моддий ва маънавий ишлаб чиқаришни уйғулаштиришнинг замонавий воситалари// “Жамоатчилик назорати – жамият барқарорлиги омили”номли илмий-амалий конференция материаллари. Жиззах, 2018. –Б.64-65.

¹ Пригожин А. Современная социология организаций . – М.: Интерпракс, 1995. –С. 295.